

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MURODOV SIROJIDDIN AHMATOVICH**

**BUXORO VILOYATIDA TARQALGAN *CISTANCHE* (HOFFMANNS &  
LINK) TURKUMI VAKILLARINING BIOEKOLOGİYASI VA  
DORIVORLIK XUSUSIYATLARI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Murodov Sirojiddin Ahmatovich**

Buxoro viloyatida tarqalgan *Cistanche* (Hoffmanns & link) turkumu vakillarining bioekologiyasi va dorivorlik xususiyatlari ..... 3

**Муродов Сирожиддин Ахматович**

Биоэкология и лекарственные особенности представителей рода *Cistanche* (Hoffmanns & link), распространенных в Бухарской области ..... 21

**Murodov Sirojiddin Akhmatovich**

Bioecology and medicinal features of representatives of the genus *Cistanche* (Hoffmanns & link), distributed in the Bukhara region..... 39

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MURODOV SIROJIDDIN AHMATOVICH**

**BUXORO VILOYATIDA TARQALGAN *CISTANCHE* (HOFFMANNS &  
LINK) TURKUMI VAKILLARINING BIOEKOLOGIYASI VA  
DORIVORLIK XUSUSIYATLARI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/B631 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) universitet veb-sahifasi www.samdu.uz manziliga hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Xojimatov Olimjan Kaxxarovich  
biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Tashpulatov Yigitali Shavkatillayevich  
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Karshibayev Xazratkul Kilichiyevich  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.02.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «29» avgust soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti asosiy binosining majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks (+99866) 239-11-40, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Ro'yxatga olingan raqami № 63). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy, Axborot-resurs markazi. Tel.: (+99866) 239-11-51)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «13» avgust kuni tarqatildi.  
(2025-yil «13» avgust dagi № 23 raqamli reyestr bayonnomasi).



**T.F. Rajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, b.f.d.

**M.S. Kuziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
b.f.f.d. (PhD), dotsent

**X.K. Haydarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda oziq-ovqat, turli kasalliklarni davolash maqsadida dorivor o'simliklardan tayyorlanadigan preparatlariga talab ortib borishi natijasida dorivor o'simliklarning tabiiy zahiralari, turlari sonini kamayishini oldini olish va ularning dorivorlik xususiyatlarini ilmiy asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Turli farmakologik preparatlarning aksariyat qismi dorivor o'simliklar ulushiga to'g'ri kelishi, dorivor o'simliklarga asoslangan xom-ashyo zahiralarning kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun, dorivor o'simlik turlaridan dori preparatlari olish bo'yicha dorivor o'simlik turlarining dorivorlik xususiyatlarini ochib berish, ularning tabiiy zahiralari saqlash, kelgusi avlodlarga yetkazish, istiqbolli ahamiyatga ega turlarni aniqlash hamda farmatsevtika sanoatini dorivor o'simliklar xom-ashyosi bilan ta'minlash, ularni ko'paytirish va yetishtirish yo'llarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Jahonda so'ngi paytlarda dorivor o'simlik turlarini, ularning tarkibidagi biologik faol moddalarni, aholi salomatligini saqlash va turli kasalliklarni oldini olishdagi dorivorlik xususiyatlarini, dorivor o'simliklarning fiziologik xossalari, fitokimyoviy tarkibi, bioekologik xususiyatlari hamda farmatsevtik istiqbolini baholash, dorivor o'simlik turlarining tabiiy zahiralari mustahkamlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada tabiiy va boshqa omillar natijasida, dorivor o'simliklarning tabiiy populyatsiyalarini kamayib ketish sabablarini aniqlash, saqlab qolish, qayta tiklash va ko'paytirish. Bu borada, dorivor o'simlik turlarining tabiiy tarqalish areallari, ularning o'ziga xos bioekologik xususiyatlari, o'sishi va rivojlanishi, dorivor o'simliklarning fitokimyoviy tarkibi va dorivorlik xususiyatlari, tabiiy resurslari, ularning etnobotanikasi, istiqbolli dorivor o'simliklarni ishlab chiqarishga joriy etish, sanoat plantatsiyalarini yaratish, xomashyosini tayyorlash usullarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda dorivor o'simlik turlarini inventarizatsiyalash, tabiiy dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, dorivor o'simlik plantatsiyalarini tashkil etish, tabiiy xomashyo zahiralari mustahkamlash, resurslarini baholash, mahalliy dorivor o'simlik xom ashyolari asosida tabiiy dori vositalari ishlab chiqarish, ayrim dorivor turlarning introduksiya qilishda muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> “dori-darmon va tibbiy buyumlar muomalasini tartibga solish hamda aholiga arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish” bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda qon tarkibidagi shakar miqdorini tartibga soluvchi turli xil glikozidlardan tashkil topgan *Cistanche Hoffmanns&Link* turkumi turlarining dorivorlik xususiyatlari, ularning tabiiy tarqalish maydonlari, tabiiy zahiralari, turkum turlarlarini muhofaza qilish, kamyob dorivor o'simliklarni asrab qolish ushbu tadqiqot ishini zaruratini belgilab beradi va ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son “Yovvoyi holda o‘svuchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-son “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarning ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ-251-son “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo miqyosida *Cistanche* turkumining 27 turi uchrab, ularning asosiy tarqalish areallari O‘rta yer dengizi hududlari, G‘arbiy va O‘rta Osiyo mamlakatlari hisoblanadi (Baytenov, 2001). *Cistanche* turkumi turlarining tarqalishi va iqtisodiy ahamiyatini o‘rganish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan Schischkin (2000), Westwood va b. (2010). Turkumning barcha turlari parazit o‘simliklar hisoblanib, bir qancha daraxt va buta hayotiy shakliga ega bo‘lgan o‘simliklarida hayot kechirishi (Beylin, 1986), turlarning kimyoviy tarkibi va ulardagi faol biologik moddalar tarkibi bo‘yicha Zhifei va boshqalar. (2018), Salehi va boshqalar (2019) tadqiqotlar olib borgan. So‘nggi yillarda *Cistanche* turkumi turlarini molekulyar va filogenetik jihatdan o‘rganish, ularning genom tahlillarini amalga oshirish borasida N. Ataei (2017), Tokuoka va boshqalar (2019) tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan.

MDH mamlakatlarida Isabayev va boshqalar. (2009, 2010), E.N. Kapsalyamova (2010), Kazbekova va boshqalar (2011), J.J. Karjaubekova, N.G. Gemidjiyeva (2013), Karjaubekova va boshqalar. (2016), Kartbaeva va boshqalar (2017) *Cistanche* turkumi turlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Turkumning tarqalish areallari T.I.Kravtsova (1987), E.O.Korolkova (2003), dorivorlik xususiyatlari S.O.Isabayev (2010), iqtisodiy va muhim xo‘jalik ahamiyatga ega xususiyatlari Sarsenbayeva (2009, 2011) va boshqalarning tadqiqotlarida atroflicha keltirilgan.

O‘zbekiston ayrim lokal hududlarida turkum turlarining tarqalishi Batashov, (2016), Esanov, Fayzulloyev (2019), Tojibayev va boshqalar (2020), ayrim xududlarda *Cistanche* *salsaning* tabiiy zahiralari Xojimatov (2018), ayrim turlarning dorivorlik xususiyatlari Obloqulov (2022), ayrim turlar tarkibidagi kimyoviy komponentlarini aniqlash bo‘yicha Sharipov va boshqalar (2019), Mamatov, Raximova (2022) va boshqalar tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

O‘zbekiston xududida *Cistanche* turkumi turlarining bioekologiyasi va dorivorlik xususiyatlarini tadqiq etishda, aniq maqsadga yo‘naltirilgan tadqiqotlar

deyarli olib borilmagan. Ayniqsa, Buxoro viloyati hududidagi turkum turlarining tarqalishi, bioekologik xususiyatlari va tabiiy resurslariga oid ma'lumotlar adabiyotlarda uchramaydi. Shunga ko'ra *Cistanche* turkumi turlarining tarqalishi, bioekologik xususiyatlari, etnobotanikasi hamda hozirgi kundagi resurs potentsialini baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi F.N.Rusanov nomidagi Toshkent Botanika bog'i tadqiqot rejasiga muvofiq "Dorivor o'simliklarni introduksiyasi: kolleksiyani to'ldirish va saqlash hamda O'zbekiston florasining iqtisodiy qimmatli o'simlik turlarining genetik bankini yaratish" (2021-2024) mavzusidagi davlat dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Buxoro viloyatida tarqalgan *Cistanche* turkumi turlarining bioekologik xususiyatlari va tabiiy resurslarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Buxoro viloyatida tarqalgan *Cistanche* turkumi turlarining biologik va ekologik xususiyatlarini aniqlash;

biometrik va ekologik ko'rsatkichlarning o'zaro korrelyatsiyasini keng ko'lamli tahlil qilish;

turlarning tarqalishini aks ettiruvchi zamonaviy GAT xaritasini tuzish;

turkum turlarining halq tabobatida qo'llanilishini aniqlash;

turkum turlari tarkibidagi ayrim biologik faol moddalar miqdorini aniqlash;

Buxoro viloyatida tarqalgan turkum turlarining tabiiy zahiralari baholash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Buxoro viloyatida tarqalgan *Cistanche* Hoffmanns & Link turkumiga mansub *Cistanche flava* (C.A.Mey.) Korsh., *C. salsa* (C.A.Mey.) Beck va *C. mongolica* Beck) turlari olingan.

**Tadqiqot predmeti** Buxoro viloyatida tarqalgan *Cistanche* turkumi turlarining biologiyasi, ekologiyasi, tabiiy zahirasi, kimyoviy tarkibi va tarqalish xaritalari hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada morfologik, biometrik, fenologik, tabiiy zahiralari aniqlash, fitokimyoviy, ekologik, korrelyatsion, statistik hamda GAT xaritalar tuzishning zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Buxoro viloyatida tabiiy holda tarqalgan *Cistanche* turkumi turlari ishtirokida 38 ta maydon ajratilgan, ularning GAT xaritalari yaratilgan;

Buxoro viloyatida tarqalgan *Cistanche flava* (C.A.Mey.) Korsh., *C. salsa* (C.A.Mey.) Beck va *C. mongolica* Beck turlarining hudud iqlim sharoitlariga xos bioekologik xususiyatlari ochib berilgan;

biometrik va ekologik ko'rsatkichlari hamda tabiiy resurslarning hosildorlik potentsiali bo'yicha o'zaro korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi ilmiy asoslangan;

turkum turlarining tarkibidagi biofaol komponent - glikozidlar, fenol birikmalar va flavanoidlar aniqlanib, turkum turlarining etnobotanik ahamiyati ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ilk bor Buxoro viloyatida tarqalgan *Cistanche* turkumi turlarining (*Cistanche*

*salsa*, *C.flava*, *C.mongolica*) tarqalishini aks ettiruvchi zamonaviy Geo-axborot tizimli (GAT) xaritalari yaratilgan;

turkum turlarining Buxoro viloyati hududidagi biologik va eksplutatsion zahiralari, turli xil sharoitlardagi tabiiy zahiralari, etnobotanik ahamiyatga ega turkumning dorivor turlari tarkibidagi biologik faol moddalari aniqlangan.

farmatsevtika sanoatida o'simliklar xom ashyosi identifikatsiyasi uchun foydalaniladigan ayrim diagnostik belgilari ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot mobaynida olingan natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarning yetakchi xorijiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqot natijalaridan amaliy loyihalarning bajarilishida foydalanilganligi, dissertatsiya tadqiqotining amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Buxoro viloyatida tarqalgan *Cistanche* (Hoffmanns&Link) turkumi turlari tabiiy zahiralarning baholanganligi, dorivorlik xususiyatlari, tarkibidagi biologik faol komponentlar, kimyoviy tarkibi, turkum turlarining etnobotanik ahamiyati hamda Buxoro viloyatida tabiiy holda tarqalishi bo'yicha zamonaviy xaritalarining tuzilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, *Cistanche* turkumi turlarining Buxoro viloyati hududida tabiiy holda tarqalgan hududlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqilganligi, ma'lum maydonlarda turkumi turlarining plantatsiyalarini yaratish, farmatsevtika sanoatini turkum turlari asosida xom ashyo bilan ta'minlash hamda muhim dorivorlik xususiyatiga ega turlarni davlat kadastrini yuritish, dorivor turlarining populyatsiyalari tarqalgan hududlarni aniqlash va ularni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Buxoro viloyatida tarqalgan *Cistanche* (Hoffmanns & link) turkumu vakillarining bioekologiyasi va dorivorlik xususiyatlarini aniqlash doirasida olingan natijalar asosida:

Buxoro viloyati hududida tabiiy holda tarqalgan *Cistanche* turkumi turlari ishtirokida ajratilgan 19 ta maydoni to'grisida yaratilgan zamonaviy Geo-axborot tizimli (GAT) xaritalari, Buxoro viloyatida *Cistanche* turkumi turlari kadastr va monitoringi Buxoro cho'l yaylov ozuqabop o'simliklar urug'chiligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi tomonidan cho'l dorivor o'simliklari monitoringini olib borish amaliyotida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasining 2024 yil 8 avgustdagi 3-492-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, *Cistanche* turkumining Buxoro viloyatida tarqalgan turlarini muhofaza qilish va biologik xilma-xilligini saqlab qolish chora tadbirlarini ishlab chiqish imkonini bergan.

*Cistanche* turkumi turlarini tarqalishini aks ettiruvchi xaritalar, turkumi turlari tabiiy resurslarining holati va ularning etnobotanik xususiyatlari A-FA-2021 144 – sonli “O'zbekiston xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor va yo'qolish xavfi ostidagi o'simliklarning elektron depozitariysini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 17 iyuldagi 4/1255-1624 – sonli ma'lumotnomasi). Natijalar, Buxoro viloyati

hududida tarqalgan *Cistanche* turkumi turlarini (*Cistanche salsa*, *Cistanche flava*, *Cistanche mongolica*) 38 ta maydondagi tabiiy resurslari maydonlarini aniqlash, ularning resurs holatini baholash, dorivorlik xususiyatlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "***Cistanche* (Hoffmanns & Link) turlari bo'yicha olib borilgan botanik tadqiqotlar tahlili. Tadqiqot obykti va metodlari**" deb nomlangan bobning birinchi bo'limida, turkum turlarining taksonomiyasi hamda ularning hozirgi kundagi holati borasida olib borilgan ilmiy izlanishlarning tahlili keltirilgan.

Bobning ikkinchi bo'limida turkum turlari bo'yicha olib borilgan botanik tadqiqotlarning tahlillari keltirilgan. Turkum turlarining asosiy tarqalish areallari sifatida O'rta yer dengizi hududlari, G'arbiy va O'rta Osiyo mamlakatlari keltirilgan. Turkumning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, ularning turli sharoitlarga moslashuvchanligi hisoblanadi. Bobning uchinchi bo'limida tadqiqot obykti va metodlari batafsil yoritib berilgan. Tadqiqotlar zamonaviy va klassik metodlar uyg'unligida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning "**Buxoro viloyatining fizik geografik tavsifi (geografik o'rni, iqlimi, tuprog'i)**" deb nomlangan ikkinchi bobida, tadqiqot olib borilgan hududning geografik joylashuvi, iqlimi, tuprog'i hamda o'simliklar qoplami to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur tadqiqotlar Buxoro viloyati hududida 2019-2024 yillarda olib borilgan. *Cistanche* turkumi vakillarining asosiy tarqalishi maydonlari, dengiz sathining 200-500 m oralig'ida hududlaridga to'g'ri keladi. Dengiz sathining eng yuqori balandligi janubi-g'arbiy Qizilqumdagi Quljuqtog' qoldiq tog'i (Shofirkon) atroflariga to'g'ri keladi (1-rasm).



**1-rasm. Tadqiqot olib borilgan hudud**

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Turkum vakillarining bioekologik xususiyatlari va mavsumiy rivojlanish maromi**” deb nomlanadi. Bobning birinchi bo‘limida turkum turlarining biologik xususiyatlari to‘g‘risidagi tahlil natijalari keltirilgan. Turkum vakillari morfologik jihatdan bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. Aksariyat holatda bir-biridan morfologik jihatdan keskin farq qilmasdan, balki ma‘lum o‘simlikka moslashganligi bilan ham o‘ziga xos xarakterlanadi. Turkum turlarining urug‘lari asosiy o‘simlik-xo‘jayinning ildizidan chiqadigan modda (shira) ta‘sirida yoki xo‘jayin o‘simlik ildiziga tekandagina unib chiqadi. Mazkur turlar xo‘jayin-o‘simlik ildizida hosil bo‘lishi bilanoq maxsus so‘rg‘ichlar hosil qiladi. Bu so‘rg‘ichlar ildiz ichiga (o‘tkazuvchi to‘qimaga) kirib, uning tarkibidagi shira bilan oziqlana boshlaydi. Ularning ildiz sistemasi parazitlikka o‘tishi tufayli metamorfozlashgan. Tur shaxsiy rivojlanishining (ontogenez) barcha bosqichlarida o‘zining rivojlangan fotosintez apparatining yo‘qligi, o‘simlik-xo‘jayin ildizlaridan ajralgan suyuqlik orqali unib chiqishini kimyoviy stimulyatsiyasi (maysalarning obligat xemotropizmi) va urug‘ning ontogenetik jihatdan juda erta boshqa ozuqaga o‘tishi bundan dalolat beradi. Ayrim yillarda havo haroratining ortib ketishi, vegetatsiyaning tez tugashiga olib keladi.

Fenologik kuzatishlar o‘simliklarni o‘rganishda eng qulay va samarali usullardan biri bo‘lib, nafaqat fazalarning o‘tish muddatlarini belgilash, balki ularning chidamliligi, shuningdek hayotiy jarayonlarning maromini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Aynan fenologik kuzatuvlar asosida, turning xom-ashyo jihatidan yetilganlik to‘g‘risida savollarga ham yechim topish mumkin.

Tadqiqotlar davomida dastlab tur tarqalgan jamoanong holati o'rganildi. Bizgacha olib borilgan botanik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu turdagi o'simliklar butalar va yarim butalar ildizida parazitlik qiladi. Ular xlorofill hosil qilmaydi, kerakli suv va oziq moddalarni xo'jayin o'simliklarning ildizlaridan oladi. Turlarning fenologik kuzatuvlari 2022-2024 yillar davomida olib borildi. Turlarning mavsumiy rivojlanishini dastlabki bosqichlari, tuproq ostida kichadi (1-jadval).

**1-jadval.**

**Buxoro viloyatidagi *Cistanche* turlarining ayrim morfologik belgilari (n-10)**

№	O'simlik umumiy uzunligi, sm	Yer ostki (stolon) qismi uzunligi, sm	Diametri, sm	O'simlik yer ustki qismi uzunligi, sm	Diametri, sm	O'simlik umumiy og'irligi, gramm	O'simlik yer ostki qismi og'irligi, gr.	O'simlik yer ustki qismi og'irligi, gr.
<b><i>Cistanche flava</i></b>								
1	94	51	6,2	43	5,7	812	507	305
2	132	73	8,1	59	6,2	1408	906	502
3	65	34	3,8	31	2,8	642	409	233
4	78	37	4,9	41	3,9	716	499	217
5	106	55	7,1	61	5,4	904	516	388
6	81	44	5,5	35	3,3	740	515	225
7	139	78	8,3	61	5,6	1468	923	545
<b><i>Cistanche salsa</i></b>								
8	82	51	4,7	31	3,3	763	514	249
9	58	36	4,2	22	2,5	655	463	192
10	75	48	4,5	27	3,4	746	504	242
11	59	34	3,7	25	2,5	630	392	238
12	47	29	3,0	18	1,8	588	375	213
13	87	44	4,7	43	3,6	790	554	236
<b><i>Cistanche mongolica</i></b>								
14	119	68	8,4	51	6,2	1440	1037	403
15	92	56	5,3	36	4,7	690	506	184
16	57	39	3,5	18	3,4	550	396	154
17	58	42	3,7	16	3,5	582	446	136
18	65	47	4,1	18	3,8	620	502	118
19	49	37	2,9	12	2,6	434	315	119

Buxoro viloyati xududida *Cistanche flava* vegetatsiyasini fevral oyining ikkinchi dekadasi dan to mart oyining dastlabki kunlarigacha davom etadi (19.02-01.03). Vegetatsiyaning dastlabki paytlarida yerda harorat yuqori bo'lmaydi. Bu esa bevosita ularning sekin o'sishiga sabab bo'ladi. Mazkur turning tuproq yuzasiga chiqishi mart otining 2 va 3 dekadalariga to'g'ri keladi (17.03-25.03). Aynan mazkur davrda viloyat hududida havo haroratining 12-18 °C ga yetishi kuzatiladi. Mazkur muddatda o'sish va rivojlanishning jadallashishi,

generativ bosqichning boshlanishiga olib keladi. 2022-2024 yillarda gullashning boshlanishi, yalpi gullashi hamda yakuniy muddatlari tahlil qilindi. Unga ko'ra turning gullash davomiyligi 18-19 kun atrofida bo'ladi. Gullashning boshlanishi 31.03-08.04 oralig'ida bo'lsa, ularning yalpi gullash bosqichi 10.04-17.04 oralig'ida kuzatildi. Yakuniy gullash bosqichi 17.04-26.04 muddatlariga to'g'ri keladi. Fenologik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, mazkur tur o'z vegetatsiyasini *C.flava* turiga nisbatan biroz kech boshlaydi (26.02-06.03). Turning tuproq yuzasiga chiqishi 24.03-31.03 muddatlari oralig'ida kechadi. 2023 yilda mazkur vaqtda havo haroratining +20 °C ham ko'tarilib ketish holatlari kuzatildi. Gullash bosqichining boshlanishi 05.04-12.04 muddatlari oralig'ida, yalpi gullashi 15.04-22.04 muddatlariga hamda gullashning yakuniy aprel oyining oxiri hamda may oyining dastlabki kunlariga to'g'ri keladi (28.04-11.05). Gullashning davomiyligi *C.flava* turiga nisbatan uzoqroq davom etadi (23-30 kun). Umumiy vegetatsiya davomiyligi 72-77 kun davom etishi qayd etildi (2-jadval).

## 2-jadval.

### *Cistanche* turkumi turlarining mavsumiy rivojlanish maromi (n-10)

№	Yillar	Tuproq ostidagi rivojlanish davri	Tuproq yuzasiga chiqishi	Gullashi			Gullashni davomiyligi, kun	Qurib qolishi	Vegetatsiya davomiyligi, kun
				Bosh.	yalpi	tugashi			
<b><i>C.salsa</i></b>									
1	<b>2022</b>	06.03	31.03	12.04	22.04	11.05	30	22.05	77
2	<b>2023</b>	01.03	27.03	09.04	18.04	02.05	23	15.05	75
3	<b>2024</b>	26.02	24.03	05.04	15.04	28.04	23	09.05	72
<b><i>C.flava</i></b>									
1	<b>2022</b>	01.03	25.03	08.04	17.04	26.04	18	06.05	66
2	<b>2023</b>	24.02	21.03	03.04	12.04	22.04	19	03.05	68
3	<b>2024</b>	19.02	17.03	31.03	10.04	17.04	18	26.04	66
<b><i>C.mongolica</i></b>									
1	<b>2022</b>	11.03	14.04	29.04	08.05	28.05	30	10.06	91
2	<b>2023</b>	05.03	07.04	19.04	30.04	22.05	33	03.06	90
3	<b>2024</b>	02.03	01.04	15.04	24.04	17.05	32	27.05	86


*Cistanche mongolica* asosan suv havzalariga yaqin bo'lgan to'qayliklarda hamda muntazam ravishda namlik yuqori bo'lib turadigan arid mintaqalarda uchraydi. Bu kabi hududlar Buxoro viloyatining Amudaryo bo'yi yoqalari, Og'itma va Sho'rko'l atroflari hamda bir qancha suv havzalari atrofida mavjud ekanligi kuzatildi. Mazkur tur turkumning qolgan turlariga nisbatan o'z vegetatsiyasini kechroq boshlaydi. Olib borilgan tadqiqotlar davomida tur o'z vegetatsiyasini aprel oyining oxirgi dekadasi boshlashi kuzatildi. Bu holat bevosita xo'jayin o'simlik bilan bog'liq bo'lib, tur asosan yulg'unzorlar (*Tamarix*) jamoasida uchrashi qayd etildi. Aynan mazkur xildagi tuproqlarda yil davomida namlikning meyorida bo'lishi kuzatiladi. Tuproqda namlik miqdorining yetarli

bo'lishi hamda optimal sharoit natijasida, *C.mongolica* tuplarining zich holatda, to'p-to'p bo'lib o'sayotganligi qayd etildi. Mazkur xildagi maydonlar, tur uchun nisbatan optimal sharoit bo'lib, ularning faol rivojlanishiga imkon bergan *C.mongolica* tuproq ostidagi rivojlanish davrini mart oyining dastlabki dekadasi boshlaydi (02.03-11.03). Turning tuproq yuzasiga chiqib borishi bevosita haroratning ortib borishi bilan jadallashadi. Aynan aprel oyining dastlabki kunlaridanoq turlarning tez rivojlanishi kuzatildi. Aprelning 2 va 3 dekadasi gullash bosqichining boshlanishi kuzatildi (15.04-29.04). Turning yalpi gullashi 24.04-08.05 muddatlariga to'g'ri keladi. Gullash bosqichining tugashi 17.05-28.05 sanalariga to'g'ri keladi. Gullashning davomiyligi, yuqoridagi ikki turga nisbatan uzoq davom etadi (30-33 kun). Qizilravot qishlog'i atrofida ajratilgan maydonlarda iyun-iyul oylarida ham turning namunalari saqlanib qolganligi kuzatildi (2023 yil). Mazkur tur qolgan *Cistanche* turlariga nisbatan zichligi ko'p ekanligi qayd etildi. Bu bevosita mazkur turning namlik yetarli bo'lgan hududlarda o'sishi bilan ham izohlanadi. Bu holat tuplarning umumiy og'irligida ham o'z ifodasini topgan. Vegetatsiya davomiyligi ham uzoq davom etib, 86-91 kuni tashkil qiladi.

Bobning ikkinchi bo'limi turlarning tashqi muhitga moslashish xususiyatlariga bag'ishlangan. Ularning ekologik xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, 2 xil yo'nalishda amalga oshishi kuzatilgan. Birinchi holat bu tashqi muhit omillari bilan amalga oshsa, ikkinchi holatda xo'jayin o'simlik ishtirokida amalga oshadi. Turkum turlari tuproqda unuvchanligini 3-8 yildan 8-12 yilgacha saqlab qoladi ([old.stgau.ru](http://old.stgau.ru)). Bu esa ularning bir qancha ekologik omillarga moslasha olishi bilan xarakterlanadi. Yillar davomida qulay sharoitning kelishi tuplarning optimal darajada rivojlanishiga imkon beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, bu holat Buxoro viloyatida o'zgacha ko'rinishda ham namoyon bo'lib, ayrim vaqtlarda kuchli shamol ta'sirida urug'larning uchib ketish holatlari kuzatiladi. Bahor oylarida yog'in miqdorining kamligi hamda haroratning keskin ortib ketishi natijasida urug'larning to'liq shakllanmasdan, qurib ketish holatlari ham kuzatildi (2021 yil).

Bobning uchinchi bo'limi biometrik va ekologik ko'rsatkichlarning korrelyatsiyasiga bag'ishlangan. Turlarning korrelyatsion tahlili, birinchi navbatda ularning muhitga qay darajada moslashganligi hamda ularning dinamikasini ko'rsatib beruvchi jihatlardan hisoblanadi. Tadqiqotlar davomida biometrik ko'rsatkichlaridan umumiy uzunligi (UU), o'simlik diametri (O'D) hamda tupning umumiy og'irligi (UO) olindi. Tashqi muhit ko'rsatkichlariga esa havo hararati (HH), havoning nisbiy namligi (HNN) va tuproqning harorati (TH) ko'rsatkichlari olindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tur tarqalgan maydonlarda asosan to'g'ri korrelyatsiya ekanligi qayd etildi. Xususan mazkur ko'rsatkichlarda faqatgina tuproqning harorati noto'g'ri korrelyatsiyaga ega ekanligi kuzatildi. Tadqiqot tahlillarini *C.flava* misolida keltirib o'tamiz. Mazkur holat nafaqat turning ko'rsatkichlarida, balki uning grafigida ham o'z isbotini topgan. Og'itma ko'li, Amudaryo yoqasi hamda Dengizko'l atrofida tuproqning harorati 22-23°C bo'lsa, qumlik va ochiq hududlarda bu ko'rsatkich 27-30°C ga yetgan. Aynan suv havzalarining yaqinligi, tuproq haroratining yil davomida bir maromda turishiga

hizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda mazkur hududlarda tuproqning o‘simliklar bilan qoplanish darajasi ham 35-60% atrofida bo‘lishi kuzatildi. Ayniqsa ochiq joylardagi qumliklarda havo haroratining ortib borishi, tuproq qatlamining ustki qismining qizib ketishiga olib keladi. Mazkur holatda o‘simlik tezroq o‘z vegetatsiyasini tugatishiga hamda hosildorlikning yengil bo‘lishiga olib keladi. Aynan keskin iqlim sharoitlarida o‘simlik tezroq tinim davriga o‘tib ketishga harakat qiladi. Bu holatda turli omillar sabab, biometrik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi kuzatiladi (2-rasm).




**2-rasm. *C. mongolica* ayrim ko‘rsatkichlarining korrelyatsion tahlili**

Aksariyat holatlarda ko‘rsatkichlarning past bo‘lishi qayd etiladi. Korrelyatsion ko‘rsatkichlar o‘z navbatida turlar uchun optimal muhitni aniqlash imkoni beradi. Bu o‘z navbatida muvaffaqiyatli introduktsiyani amalga oshirishga xizmat qiladi. Aynan istiqbolli turlarning plantatsiyasini yaratish hamda ulardan samarali foydalanishda, mazkur korrelyatsion tahlillarning o‘rni juda muhim hisoblanadi.

Bobning to‘rtinchi bo‘limi turkum vakillarining tarqalishi hamda ularning GAT xaritalarini tuzisgni tahliliga qaratilgan. Hozirgi kundagi zamonaviy botanik tadqiqotlarda muhim xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘simliklarni tarqalishi koordinatalarini aniqlash hamda shu asosida ularning zamonaviy xaritalarini tuzishga katta e‘tibor berilmoqda. Mazkur xildagi xaritalar orqali turlarning tarqalishi hamda ularning tabiiy zahiralari to‘g‘risida ma‘lumotlarni olish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning “**Turkum turlarining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va fitokimyoviy tarkibi**” deb nomlanadi. Bobning birinchi bo‘limi turkum turlarining xalq tabobatida va zamonaviy tibbiyotda qo‘llanilishiga bag‘ishlangan. Turkum turlarining xom ashyosi asosan yer ostki qismi (ildizi) hisoblanib, urug‘lagandan so‘ng, tinim davridan oldin, biologik faol moddalari yuqori bo‘lganda yig‘iladi. Turkum vakillari bir necha asrlardan beri xalq tabobatida muntazam foydalanib kelinadi. Yer ostki qismi, ya’ni ilon shaklidagi baquvvat ildizlarida alkaloidlar, sterinlar, yog‘ kislotalari, mannitlar, antosianlar, fenollar, uglevodlar bo‘lib, xalq tabobati hamda kosmetologiya sanoatida ishlatiladi.

Bobning ikkinchi bo‘limi turkum turlarining fitokimyoviy tahlillari natijalariga bag‘ishlangan. Bunda Buxoro viloyatida tarqalgan turkum vakillarining tarkibidagi biofaol bo‘lgan komponentlar (glikozidlar, fenol birikmalar va flavanoidlar) o‘rganilgan. Mazkur komponentlar o‘simliklarda uchraydigan polifenolli ikkilamchi metabolitlar sinfiga mansub bo‘lib, insonlarning oziq-ovqat ratsionida ko‘p iste‘mol qilinadigan birikmalar qatoriga kiradi. Mazkur jarayonlar kversetin va rutin standart namunasi asosida keltirilgan. Buxoro viloyatida tarqalgan turkum vakillarining tarkibidagi biofaol bo‘lgan komponentlar (glikozid, flavonoid va fenolli birikmalar) yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida standart namunalarga qiyosiy solishtirilgan holda o‘rganildi (Tadqiqotlar Toshkent farmatsevtika institutida prof. A.T. Sharipov bilan hamkorlikda amalga oshirilgan). Olib borilgan tadqiqotlar natijasida *C.salsa*, *C.flava* *C.mongolica* tarkibidagi flavonoidlar miqdori kvertsetinga nisbatan qayta hisoblanganda mos ravishda 2,62, 1,17 va 2,12%. Bundan ko‘rinib turibdiki, tarkibidagi flavonoidlar miqdori bo‘yicha *C.salsa* bir oz ustunlik qiladi (3-rasm).



**3-rasm. *Cistanche* turkumi turlari tarkibidagi biofaol moddalar miqdori**

Tarkibidagi glikozidlar miqdori (glitsirizin kislotasi qayta hisoblangan) bo'yicha *C.salsa* (2,16%), *C.flava* (1,90%) *C.mongolica* (1,57%) qatorida kamayib borishini kuzatildi. Turkum vakillari tarkibidagi fenol birikmalar (Gall kislotasiga qayta hisoblangan) miqdori bo'yicha bir-biridan deyarli farq qilmasligi aniqlandi va o'rtacha 1,5% atrofida fenolli birikmalar saqlashi mumkinligi qayd etildi. Umuman olganda Buxoro viloyatida tarqalgan turkum vakillari tarkibida xilma-xil va ko'p miqdorda biologik faol birikmalarini saqlashi bilan ajralib turadi.

Dissertatsiyaning "**Turlarning tabiiy zahiralari va muhofaza choralari**" deb nomlangan beshinchi bobida, turkum turlarining Buxoro viloyati xududidagi tabiiy zahiralari hamda ularni muhofazasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, *Cistanche flava* bitta tupining og'irligi 642 gramm dan 1468 gramm gacha bo'lishi qayd etildi. Buxoro viloyatida tarqalgan *Cistanche flava* o'simligi bitta tupining og'irligi 955 grammni tashkil qiladi. Tuplar massasining eng yuqori ko'rsatkichi G'ijduvon tumani Zafarobod yaqinidagi maydonlardan aniqlandi. Mazkur hududda bitta tupning o'rtacha og'irligi 1648 grammni tashkil qiladi. Ilmiy izlanishlarimiz davomida 100 m<sup>2</sup> maydondagi voyaga yetgan tuplarning o'rtacha miqdori ham aniqlandi. Mazkur jarayonda tuplarning gramm hisobidagi ho'l massasi tahlil qilindi.

Unga ko'ra ajratilgan maydonlarda ularning ulushi 2074 gramm dan (2,07 kg) to 63124 gramm gacha (63,1 kg) bo'lishi qayd etildi. Mazkur tuplarning barcha hududlardagi umumiy massasi 268981 grammni (268,9 kg) tashkil etishi kuzatildi. Avvalgi boblarda ta'kidlab o'tilganidek, iloncho'p turkumi turlarining yer ostki qismidan dorivor xom-ashyo sifatida keng foydalaniladi. Tadqiqotlar davomida bir tup o'simlik yer ostki qismining og'irligi 409 gramm dan to 923 gramm gacha bo'lishi aniqlandi. Buxoro viloyatida tarqalgan *Cistanche flava* tuplari yer ostki qismining o'rtacha og'irligi 610,71 gramm atrofida bo'lishi qayd etildi. Mazkur ajratilgan umumiy maydonlarda ularning o'rtacha miqdori 1464 gramm dan to 39689 gramm atrofida bo'lishi qayd etildi. Ularning umumiy miqdori 115655 gramm (115,655 kg) atrofida ekanligi kuzatildi.

